

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA XITOIY TILINI O'QITISH

Ilxomov Murodjon

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail: murodjonilxomov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion o'qitish usullarining xitoy tilini o'rgatishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. O'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, interaktiv va kommunikativ yondashuv orqali ularning eshitish, o'qish va so'zlashuv kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, multimedia, onlayn platformalar, mobil ilovalar va madaniyatlararo yondashuv kabi metodlarning samaradorligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: innovatsion, multimedia, interfaol, multimodal, "hello Chinese", "pleco", "pinyin".

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi xitoy tilini o'qitish va o'rganish manzarasini o'zgartiradi. Texnologiyalar rivojlanishda davom etar ekan, ular o'qitish va o'rganish tajribasini yaxshilash uchun til ta'limiga tobora ko'proq integratsiya qilinmoqda.

Xitoy tili ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik tamoyillari: Raqamli texnologiyalar multimedia resurslari, onlayn platformalar va virtual immersion tajribalari orqali haqiqiy xitoy tiliga kirish imkonini beradi. Ushbu bo'limda xitoy tilini o'qitishda asl til kiritishning pedagogik tamoyillari muhokama qilinadi.

Raqamli texnologiyalar matn, audio, video va interfaol elementlarni birlashtirib, multimodal o'rganish tajribasini osonlashtiradi. Ushbu bo'limda multimodal o'rganish yondashuvlari xitoy tilini o'qitishni qanday yaxshilashi va lingvistik va madaniy jihatlarini chuqurroq tushunishga yordam berishini muhokama qiladi.

Aralashtirilgan ta'lim: yuzma-yuz o'qitishni online komponentlar bilan birlashtirib, moslashuvchanlik shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasini taklif qiladi. Ushbu bo'limda raqamli texnologiyalar va an'anaviy o'qitish usullari o'rtasidagi sinergiyaga urg'u berib xitoy tili sinflarida aralash ta'lim modellarini integratsiyasini muhokama qilinadi. Xususan, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjud. Texnologik vositalardan foydalanish chet tilini o'rganishning har bir aspektida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish (听力) uchun albatta komputer, player, CD disklar yoki podcastlar eshitishda mobil telefonlarsiz bu ishning umuman iloji yo'q. Tinglab tushunish til o'rganishning asosiy qismlaridan biridir. Bu jarayonda esa innovatsion texnologiyalarning o'rni beqiyos.

Bu jarayonda kompyuterdan foydalanish jarayonida o'quvchi chet tilidagi video roliklar, dialoglar, kino va multfilmlarni ham ko'rish, ham eshitish imkoniyatiga ega. O'zDJTU talabasi sifatida shuni ayta olamanki, sinf xonalardagi aqilli doskalar hamda televizorlar talabalarni til o'rganishida yirik samaradorlikni yuzaga keltiradi. Darslar davomida talabalar vizual tarzda mavzularni o'zlashtirishi va metodga qarab audio va video qo'llanmalar, online o'yinlar yoki prezintatsiyalarni uzilishlarsiz taqdim etishga yordam beradi natijada esa talabalarda darsga qiziqish ortadi. Televizorlar yordamida esa o'quvchilar xitoycha kinolar ko'rish bilan real nutqni tushunish darajasini oshiradi

va subtitrl bilan mashq qilish orqali vizual xotirani kuchaytirishga hamda online o'yinlar o'ynash yordamida mavzuni mustahkamlashga yordam beradi.

Ushbu raqamlashgan davrda o'qituvchilar yordamchi ilovalar yordamida ta'lim jarayonini osonlashtirishi hamda lug'at, grammatika va talaffuzni o'rgatish usullarini keng boyitadi. Bunda o'quvchilar urli xil mobil ilovalardan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratilgan.

Masalan: "Hello Chinese" - bu xitoy tilini noldan boshlab o'rgatishga mo'ljallangan zamonaviy raqamli ta'lim platformasi hisoblanib, u tilni o'rganish jarayonini oson, qiziqarli va samarali qiladi. Ilova orqali foydalanuvchi o'qish, yozish, tinglash va gapirish ko'nikmalarini bir vaqtda rivojlantiradi. Ushbu ilova nutqni tanish texnologiyasiga asoslangan bo'lib o'quvchilarda tinglab tushunishni va real hayotdagi muloqotga tayyorlaydi. "Hello Chinese" platformasi foydalanuvchining darajasiga qarab darslarni moslashtiradi, har bir o'quvchiga individual yondashuv beradi hamda samarali rivojlanishni ta'minlaydi.

Pleco - bu xitoy tilini o'rganishda eng mashhur ilovalardan biri bo'lib, u lug'at, o'quv tizimi va matn tahlili vositasi sifatida ishlaydi. Ya'ni bu oddiy ilova emas, balki kompleks o'rganish platformasi hisoblanadi. Ushbu ilova asosan xitoycha – inglizcha lug'at sifatida foydalaniladi, asosiy ustunligi esa ushbu ilova o'zida 100 000+ so'z va iboralarni qamrab olganligidadir. O'quvchi har bir so'z uchun uning ma'nosi, "pinyin" (talaffuz) normativlari va qo'shimcha tarzda esa misollarga ham erishishga ega bo'ladi. Inglizcha tarjima orqali, kamera orqali, ieroglifni qo'lda ekranga chizish orqali hamda tovush yordamida xitoycha so'zlarni oson va tez topib uni analiz qilish uchun qulay ilova hisoblanadi. Ilmiy jihatdan esa "pleco" oddiy lug'at emas balki u so'zlarni kontekst bilan o'rganish, so'zlarni yaxshiroq eslab qolish hamda ierogliflarni visual tarzda ko'rib miyadagi assotsiatsiyani kuchaytiradi. Mazkur turdagi ilovalar o'quvchilarga o'qituvchisiz ham o'zlari bilmagan so'zlarni tez va samarali topishga yordam berib ta'lim jarayonidagi unumlilikni oshiradi.

Ta'kidlash joizki dars jarayonlarida turli xil online o'yinlar tashkil etish o'quvchilarda til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga va muntazam o'qishga yordam beradi. Bunda o'qituvchi asosiy tamoyillar sifatida ball tizimi joriy qilishi, raqobat va vaqt bilan ishlash ko'nikmalarini tashkil qilishi hamda mukofot va rag'batga bo'lgan etiborni kuchaytirishi muhim. Interaktiv o'yin sifatida "Kahoot!" raqamli platformasini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu platforma til o'rganuvchilar orasida mashhur bo'lib o'yin jarayoniga har bir talabalar maxsus PIN kod orqali telefon yoki kompyuter orqali kiradi va har bir savolga ikkitadan to'rttagacha javob varianti qo'yiladi. Natijalar real vaqt rejimida ekranda chiqadi. O'yin boshlashdan avval talabalar va ustoz kelishgan holda yoki o'tilgan mavzu yuzasidan o'zlariga yoqgan mavzuni tanlash imkoniyatiga ega. Platforma keng qamrovli mavzular tanlovini beradi. Misol uchun Xitoy madaniyiga bog'liq, grammatika hamda mavzulashtirilgan lug'atlar o'yini mavjud. O'yin asosan guruh bilan birga ishlatilishga qo'llanilganligi sabab jamoaviy muhit yaratadi, kommunikatsiya ko'nikmasini oshiradi va raqobat va hamkorlikni rivojlantiradi.

Ma'lumki, dunyoda xitoy tili o'sib rivojlanib kelayotgan bir paytda tilni o'rgatish davomida yana ham qulayroq hamda yengil metodikalardan foydalanish juda ham muhim. Shuni ta'kidlash joizki 21-asrda pedagogika sohasida texnologiyalardan to'g'ri foydalanish xitoy tilini chuqurroq va mustahkam o'rganishga katta yordamchi bo'la oladi. D.Nazarova so'zlariga ko'ra "Xitoy tilini o'rganishda innovatsion o'qitish

usullaridan foydalanish o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quv jarayonini samarali va motivatsion qilishda muhim vosita hisoblanadi. O'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalarini to'g'ri tanlash va maqsadga muvofiq qo'llay bilishi ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xitoy tilini o'qitishda dolzarb muammolar; Mardonova Niginabonu 1-2pg
2. Xitoy tilini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning lingvometodik asoslari; Azamatova Dilsora Xamidulla qizi 55-56pg
3. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarning chet tilini o'qitishdagi o'rni va ulardan foydalanish; B.Khamrakulova 699pg
4. Nazarova D. "Innovatsion yondashuvlar va ularning ta'limdagi o'rni", "Pedagogika"jurnali, 2022.